

UDK: 821.111; 821.512.133.

## ABDULLA QAHHOR VA O.GENRI ASARLARIDAGI O'XSHASH VA TAFOVUTLAR

*Shahobova Sitora Baxromovna,**researcher**Tashkent State University of Oriental Studies,**E-mail: sitorashaxobova28@gmail.com**Khallieva Gulnoz Iskandarovna**professor**Uzbekistan State World Language University,**E-mail: [gulnoz7410@mail.ru](mailto:gulnoz7410@mail.ru)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Jahon va Uzbek adabiyotining buyuk namoyandalari O.Genri va A.Qahhor asarlaridagi o'rganilgan o'xshash va farqli hodisalar adabiy izohlar bilan tasvirlab berilgan.

**Kalit so'zlar:** o'xshashlik, tafovut, qahramonlar, kinoya, hikoyanavis, taqqoslash, kitobxon.

**Аннотация:** В статье описываются схожие и различные явления, изучаемые в произведениях великих деятелей мировой и узбекской литературы О. Генри и А. Каххора, с литературными пояснениями.

**Ключевые слова:** сходство, различие, характеры, ирония, рассказчик, сравнение, читатель.

**Annotation:** The article describes similar and different phenomena studied in the works of great writers of the world and Uzbek literature O. Henry and A. Kahhor, with literary explanations.

**Keywords:** similarity, difference, characters, irony, storyteller, comparison, reader.

Yozuvchilar turli xil davrlarda yashab ijod qilishlari mumkin, lekin ular ifoda etgan g'oya va tushunchalar, qahramonlarning xarakterlari, davr muammolari bir xil bo'lishi mumkin yoki aksincha bir xil zamonda istiqomat qilib, bir paytda ijod etgan yozuvchilar turli xil muammolar yoki turli xarakterli qahramonlarni gavdalandiradilar. Kitobxonlar uchun har doim u jahon adabiyoti buladimi, uzbek adabiyotimi, asar o'qish jarayonida beixtiyor qahramonlarning turli o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan xarakterlarini, ijtimoiy va davr muammolarini, yechimlarini ko'z oldilarida gavdalandiradilar. Jahon adabiyoti va o'zbek adabiyoti hikoyalarining o'qir ekanmiz ularni o'xshash va farqlarini taqqoslamaslikning iloji yo'q. Mashhur amerikalik hikoyanavis O.Genri va o'zbek buyuk hikoyanavisi A.Qahhorning asarlarini ham o'qib tahlil qilayotgan har qanday kitobxon beixtiyor birxillik va farqli holatlarga guvoh bo'lishadi. Ikki buyuk yozuvchilar ikki xil davrda yashab ijod etgan. Buyuk amerikalik yozuvchi O.Genri taxallusi bilan dunyo adabiyotshunosligida katta iz qoldirgan Villiam Sidney Porter 1862 yilda Amerikaning Shimoliy Karolina shtatida ziyolilar oilasida tavallud topgan. Adib otasidan 15 yoshida ayrilgan va boshqa bolalardan farqli o'laroq erta onasiga yordam berish uchun ishlashni boshlagan. Hayoti davomida farmasevt, jurnalist, bank xodimi va yozuvchi bo'lib fa'oliyat yuritgan. 1910 yilda sog'lig'i yomonlashgani sabab ko'z yumgan. Uning "Magining sovg'asi", "Hargravesning ikki xilligi", "Oxirgi barg", "Ikki bo'shliqning to'lovi", "Karam va Qirol" kabi mashhur hikoyari dunyo yuzini ko'rgan.

Abdulla Qahhor esa Markaziy Osiyo davlatlaridan biri bo'lmish O'zbekistonning Qo'qon shahrida oddiy temirchi oilasida 1907 yilda tug'ilgan. Uning Mavlon Kufur, Gulyor, Erkaboy taxallusi ostida chiqargan asarlari adabiyot olamiga mashhur. U hayoti davomida faqat izlangan

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

va adabiyot bilan mukammal shug'ullanib, bebaho asarlar yozgan. Salomatligi og'ir bo'lganligi sababli Moskvada 1968 yil 61 yoshida vafot etgan. Adibning "Anor", "O'g'ri", "Yillar", "Dahshat" va "O'jar" hikoyalari nafaqat o'zbek adabiyotida balki butun dunyo adabiyotida yuqori nufuzga egadir.

Bu ikki buyuk hikoyanavislarning hayotiga nazar solar ekanmiz, ulardagi o'xshash holatlarni kuzatishimiz mumkin. Ikki atoqli inson ham boshqa adiblardan ko'ra bu dunyoni erta tark etgan. Qisqa umrlarida o'sha davr tuzumi va qiyinchiliklari haqida beqiyos asarlarni meros qoldirgan. Ijodlardagi o'xshashlikka e'tibor beradigan bo'lsak, voqea hodisalarni kinoya va istehzoli ifoda etish ikki yozuvchining ijodida mujassam. Buni O.Genrining "Magining sovg'asi" va A.Qahhorning "Anor" haqidagi hikoyalardan anglashimiz mumkin. "Magining sovg'asi" hikoyasining bosh qahramonlari Jim va Della o'zlarida mavjud va ularga qadrli bo'lgan matohlarini bir-birlarini xursand qilish uchun qurbon qiladilar. Ikki sevishgan qalb, Della o'zining uzun sochlarini va Jimm ota-onasidan meros qolgan qimmatli oltin soatini bayram sovg'asini olish uchun sotadilar. Asarni o'qir ekansiz, yozuvchi qahramonlarning suhbatlari orqali uquvchiga jamiyatda kambag'al toifadagi shaxslarning hayot tarzi, ularning dunyo qarashlari, sevgisi, xursandchilik va qayg'usini kinoya va istehzo bilan ifodalanganini guvohi bo'lasiz. Yozuvchi asar qahramonlari: Dellaning uzun sochlarini sotib, Jimni soati uchun zanjir olgani, yoki Jim o'zining qadrli oltin soatini sotib, o'z sevgilisi Della orzu qilgan bejirim taroqni sotib olganligini tasvirlash orqali kitobxonga ushbu sovg'alarni keraksiz matoh bo'lganligini ochiq kinoya qilganligini anglash mumkin.

Xuddi shunday kambag'allikdan aziyat chekkan yosh oila timsolini A.Qahhorning "Anor" hikoyasida ham ko'rishimiz mumkin. Asar bosh qahramoni Turobjon ayolining anorga boshqorong'u bo'lganligini bilib, unga aytgan paytda anor olib kela olmaganligi o'sha davrning quyi qatlam sharoitini to'liq ochib bergan. Ikki yoshning o'zaro munosabatini tasvirlash orqali yozuvchi o'sha davrning og'ir sharoitini istehzo bilan ifoda etgan. Bu hikoyaning oxiri juda ta'sirli: Turobjon tongga yaqin paytda bir choyshab anorni uyning o'rtasiga tashlagani va uning vujudi titrayotganidan o'quvchi beixtiyor qahramon anorlarni majbur bo'lganidan o'girlaganligini taxmin qiladi. Bu ikki hikoyadagi qahramonlar, garchi turli xil millat, tili, dini, e'tiqodi bir-birlariga o'xshamasada yoki voqea hodisalar turli davrlarda sodir bo'lgan bo'lsada o'xshash mavzularni ifodalagani kitobxon tezda anglay oladi.

Shu bilan birga hikoyalardagi farqni ham zehni o'quvchi tez ilg'aydi. "Magining sovg'asi" dagi ikki sevishgan bir-biriga bo'lgan munosabatini berkitmaydi. Buni ularni suhbatidan, ya'ni Dellaning: "Jim azizim, bayramni senga sovg'a bermasdan qanday o'tqazaman..." yoki Jimning qo'llarini Dellaning yelkasiga qo'yib, "Seni sochingni kesganing meni seni sevishdan to'xtata olmaydi" degan nutqlari ochiq munosabatlar o'sha xalq urf odatida oddiy holat ekanligini anglash mumkin. A.Qahhorning qahramonlari esa aksincha, o'ta yopiq. Hattoki asar bosh qahramoni Turobjon boshqorong'u ayoliga anor olib kelmagan paytda:

-Ajab qildim,-dedi Turobjon titrab,-jigarlaring ezilib ketsin!

Bu gapdan keyin ayoli juda diqqat bo'ladi ammo Turobjon uni oldiga borib, unga: "Xafa bo'lma, shunchaki jahl ustida aytim" demoqchi bo'ladi ammo bunga uning izzat nafsi yo'l qo'ymaydi. Bu bilan yozuvchi butun o'zbekning tanti mardi ichidagi barcha hissiyotlarini ko'rsata olmasligini ifoda etgan. Ikki hikoyaning yakuni ham yozuvchilar ijodidagi katta farqni namoyon qiladi. Genri asarlarining yakuniy qismlari aniq voqealarga asoslangan. Della va Jimning sovg'alari foydasiz, ularning chin sevgilarigina haqiqiy sovg'a ekanligini o'quvchi payqaydi.

A.Qahhor asarlarining yakuni esa Genridan farqli ravishda juda keskin. Ayolning eriga:

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

-Qayoqqa bordingiz? -Nima qildingiz? degan savollariga Turobjon javob bermadi, aksincha, uning vujudi titrar edi. Bu suhbatdan shuni anglash mumkinki, yozuvchi ushbu hikoyada savol va javoblarni o'qivchiga ixtiyoriga qoldirgan.

Bunday o'xshashlik va farqlarni ikki hikoyanavisning barcha asarlarida kuzatish mumkin. Yana bir taqqoslashga arziydigan asarlardan "O'g'ri" (A.Qahhor) va "Yigirma yildan keyin" (O Genri) hikoyalarini misol qilishimiz mumkin. Ikki asarning g'oyasi o'xshash, ya'ni ular jinoyatchini qidirishadi. Faqat jiniyotchini qo'lga olish jarayonlari keskin farq qiladi. A.Qahhorning oddiy, sodda, kambag'al qahramonlari Qobil bobo va uning kampiri yo'qolgan ho'kizini topish uchun o'zlarida mavjud bo'lgan hamma narsani, xo'roz, tovuq va uning tuxumlarigacha birgina "pristavga" xabar berishi uchun ellikboshi, mingboshi deganlariga tutqazdi. Adib bu bilan o'sha davrdagi oddiy xalqning va yuqori mansabdagi shaxslarning tafovutini ko'rsatib berishga harakat qiladi. Jamiyat naqadar ayanchli, boylar yana boy bo'lish ilinjidaligi, kambag'al Qobil bobo va unga o'xshagan oddiy xalq yuqori mansabdagi jamiyatning qonun va xohishlarini anglamaydilar. Oddiy xalqning tashvishi yuqori lavozimdagi davlat boshqaruvchilarini qiziqitirmaydi. Bunday holatni Qobil boboning sigirini qididishdagi ellikboshi va mingboshilarning bobo bilan munosabatidan yaqqol anglash mumkin. O.Genrining "Yugirma yildan keyin" hikoyasida esa, jinoyatchini topishdagi bahs-munozaralarni deyarli asar oxirigacha kitobxon tushunmaydi. Ikki do'st yigirma yildan keyin o'zlari katta bo'lgan ko'chadagi daraxt tagida uchrashmoqchi bo'lishadi. Organ xodimi obrazidagi qahramon ko'chalarni tekshirgandek aytilgan joyga o'z vaqtida boradi va begona yigit bilan ikki daqiqa suhbat qilib, uning qadrdon do'stini kutayotganligini biladi va o'z yo'lini davom etadi. Aytilgan vaqtdan ozgina kechroq boshqa bir kishi kelib, uning qadrdon do'stiligini aytib, uni ovqatlanishga taklif qiladi. Yemakxona eshigi oldida o'rnatilgan qurilma do'stini kutib o'tirgan kishini qidirilayotgan shaxsligi haqida belgi beradi. U qo'lga olinadi va uning qo'lga bir varoq qog'oz beriladi. Bir parcha qog'ozda: "Bob, men o'z vaqtida aytilgan joyga bordim va Chikago politsiyasi tomonidan qidirilayotgan odamni ko'rdim. Seni o'zim qo'lga ololmasdim va boshqa ichki ishlar xodimini jo'natdim, Jimmy" deb yozilgan edi. Kitobxon asar oxirigacha jinoyatchi haqida hech nimani tushunmaydi, ammo birgina maktubning o'zi jamiyat qoidalariga hamma bo'ysinish kerakligini tushuntiradi, hattoki o'ta qadrlil inson bo'lsa ham. A.Qahhor asaridagi o'g'rini izlashdagi holatdan Genri qahramonlari jamiyatga sidqidildan xizmat qilishi bilan farq qiladi. E'tibor beradigan bo'lsak, Genrining deyarli barcha hikoyalarida yakuni aniq voqealarga asoslangan bo'lsa, A.Qahhor hikoyalari esa o'quvchiga ochiq savol bilan murojaat qiladi. Xususan, "Qobil bobo Egamberdi paxtafurushning oldiga bordi. Paxtafurush uning holiga achindi va erni haydab olish uchun unga bir emas ikkita ho'kiz beradi faqat bitta "kichkina" sharti borligini aytadi. Bu shart kuzda malum bo'ladi ...". Kuzda nima bo'lishini o'sha jamiyatning, o'sha davrdagi odamlarigina biladi yoki hozirgi kitobxon esa shunchaki tasavvur qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yuqoridagi ikki adibning ijodlari o'xshash va tafovutlarga ega. Buni tahlil qilingan asarlarida ko'rishimiz mumkin.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Qahhor. (1939). O'g'ri. Tanlangan asarlar. Toshkent: G'afur G'ulom Nashriyoti.
2. O.Genri. (1906). Yigirma yildan keyin. To'rt million. Nyu-York: McClure, Philips&Co
3. Bahromovna, S. S. (2024, September). ANALYSIS OF TEXT DESCRIBING CEREMONIES IN ENGLISH AND UZBEK. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 26, pp. 61-64).

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

4. Abdullayeva, M. (2025). DUNYONING ISHLARI INGLIZ TILIDA (Mark Riss tarjimasi tahlili). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 374-377.
5. Shahobova, S. (2024). *Журнал академических исследований нового Узбекистана*, 1(12), 61–63. ИЗВЛЕЧЕНО ОТ <https://inlibrary.uz/index.php/yoitj/article/view/57263>
6. Shahobova S. INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA MAROSIMLAR TASVIRLANGAN MATN TAHLILI. (2024). Yangi O‘zbekiston Taraqqiyotida Tadqiqotlarni o‘rni Va Rivojlanish Omillari, 11(1), 201-205. <https://pedagoglar.org/04/article/view/5005>
7. Saidova, M. A. (2024). CONTROL OF SPEECH SKILLS AND SKILLS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY*, 2(17), 235-239.
8. Lafasov, U. P., & Abdullayeva, M. R. (2024). Abdulla Qodiriy romanlaridagi jonlantirish va tashxis tasvir usullari. *Tadqiqotlar. Uz*, 39(3), 65-70
9. Abdullayeva, M. R. (2022). TRANSLATION PROBLEMS OF VERB PHRASEOLOGISMS EXPRESSING NATIONAL COLOR. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 25), 347-352.
10. Abdullayeva, Marxabo, and Fotimaxon Bekmahammadova. "INGLIZ TILINI O‘RGANISHDA SUNIY INTELLEKTDAN FOYDALANISH." *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI* 12.01 (2025): 136-137.
11. Xayrulla Khudoyorovich Khamidov, Ikrom Yusupovich Bultakov, Karima Saydanovna Raxmanberdiyeva, Sarvinoz Sayfullayevna Kasimova, Shirin Baxtiyarovna Sodiqova. Linguistic Expertise of Educational Literature: Analysis and Results // *Journal Power System Technology*. Vol. 48 No. 4/2024 p. 4017-4027. <https://powertechjournal.com/index.php/journal/article/view/1253>
12. Raxmonkulovna, A. M., S. S. Ilxomqizi, and N. M. Xaitbayevna. "Principles of understanding a positive language in translation (in act of the agata Kristi works)." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 10.4 (2020): 156-158.
13. ABIDOVA, Z. (2024). TAFAKKUR FE‘LLARINING INGLIZ TILI IZOHLI LUG‘ATLARDAGI TALQINI. *News of the NUUz*, 1(1.5. 2), 239-284.